

BOLALARDA EKRAN QARAMLIGINING RIVOJLANISHGA SALBIY TA'SIRI VA UNI KAMAYTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Najmitdinova Dilnoza Rafikovna

Masofaviy ta'lif Psixologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi

Qo'qon universiteti Andijon Fillilali

Telefon: +998914798390

Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li

"Kompyuter Injiniring va raqamli texnologiyalar"

kafedrasi o'qituvchisi

Qo'qon universiteti Andijon Fillilali

Email: xalimjonov1234@gmail.com

aliquulovnurmukhammad@gmail.com

Annotatsiya: Bolalarda ekran qaramligining rivojlanishga salbiy ta'siri va uni kamaytirish uchun ko'p usullar tajribadan o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sodn qaroriga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik psixologik nuqtai nazardan qo'llab quvvatlash, ularni mifikta ta'limga ruxan tayyorlash maqsadida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu muammo bolalarga salbiy ta'sir qilib ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojiga pasayishi uchun ekran qaramligi omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: *Ecran qaramligi, salbiy ta'siri, kamaytirish*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sodn qaroriga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik psixologik nuqtai nazardan qo'llab quvvatlash, ularni mifikta ta'limga ruxan tayyorlash maqsadida alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar xayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Kompyuter o'yinlari, video o'yinlar va mobil o'yinlari bolalarda ekran qaramligining rivojlanishiga keng o'rinn olmoqda. Bu qurilmalardan cheksiz foydalanish oqibatida – ekran qaramligini olib keladi. Bu muammo bolalarga salbiy ta'sir qilib ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojiga pasayishi uchun ekran qaramligi omili hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Ba'zi ota-onalar kompyuterni hayotimizga faqat foyda keltiradigan vosita deb hisoblashadi. Unday emas! Bolalarda ekran qaramligi tobora murakkablashib borayotgan jarayonlardan biri kompyuter o'yinlari, video o'yinlar va mobil o'yinlariga ko'p vaqt sarflashi, kundalik xayotida, ish mifikta va ijtimoiy munosabatlarga e'tibor bermasligi ekran qaramligining belgilaridan biri hisoblanadi.

Internetdan haddan tashqari foydalanish befarqlikni keltirib chiqarashi, bolalarda normal ijtimoiylashuvga to'sqinlik qilishi mumkin. Bolalarda yomon g'oyalar va lo'plab reklamalarga duchor bo'lishadi. Kompyuter o'yinlari zo'ravonlikni o'z ichiga oladi va o'ziga tez qaram qiladi. Video o'yinlar 1970-yillarda paydo bo'lgan.

O'yin bolalarning ruxiy salomatligi va ijtimoiy xayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi sababli o'yinni tark etishda qiyinchilik keltiradi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 2018 yilda rasmiy kasallik toifasiga o'yinga qaramlikni qo'shib, ushbu vaziyatning jiddiyagini ta'kidladi. Unga ko'ra ekranga qaramlik ko'z va tananing jismoniy zo'riqishi, uyqusizlik, haqiqiy xayotdan uzib qo'yish va hissiyotlarning zaiflashuviga olib keladi. Ekranga qaramlik – zamonaviy giyohvanlik kabitidir. Bu esa ular miyamizda juda ko'p miqdorda dofamin ishlab chiqaradi degani, bu esa eyforiya tuyg'usini keltirib chiqaradi, vaqt o'tib miya bunga mukkasidan ketadi. Achinarlisi xech qanday chegaralarga qaramay, hali bir yoshga qirmagan bola ham mobil videolarga qaram bo'lib bormoqda.

O'yin o'ynashga kun soatlab o'yin o'ynash, boshqa mashg'ulotlarga vaqt ajrata olmasligini kamaytirish uchun ular bilan kurashish qiyin bo'lishi mumkin, ammo bu qaramlikni yengish mumkin.

Ekranga qaramlikni yengib o'tishdagi birinchi qadam, bolalarda muammo borligini qabul qilishdir. Unga ko'ra bolalar bilan doimiy muloqatda bo'lish, ular bilan turli sport mashqlarini bajarish, bolalar xos o'yin kulgilarni bajarib ularni ekran qaramligidan olib chiqish mumkin.

Tadqiqotning vazifalari: Bolalarda ekran qaramligining rivojlanishga salbiy ta'siri va uni kamaytirish uchun bolalar bilan yoshiga mos ravishda turli o'yinlar o'ynash, birganlikda kitoblar o'qib uni muhokama qilish va oila davrasida televizordan ko'ngil ochar dasturlarni tomosha qilish.

Tadqiqot natijalari. Kompyuter o'yinlari, video o'yinlari va mobil o'yinlari bolalarda ekran qaramligining rivojlanishiga keng o'rin olmoqda. Buning salbiy natijalari mavjud bo'lib, ular ko'z va tananning jismoniy zo'riqishi, uyqusizlik, semirib ketishga olib keladi. Kamroq video o'yin o'ynagan bolalar maktabda yaxshi o'qiydi. Ota-onalar tomonidan farzandlariga kompyuter o'yinlari, video o'yinlar va mobil o'yinlariga vaqtini sarflashiga cheklov qo'yish. Ota-ona, tarbiyachi va o'qituvchilar tomonidan bolalarga ta'lim beruvchi o'yinlarni o'ynashga jalb qilish.

Xulosa. Bolalarda ekran qaramligining rivojlanishi - bu bolalar xayot sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib turgan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Biroq, bu qaramlikni tan olish va to'g'ri qadamlar qo'yish qaramlikdan xolos bo'lishning eng muhim usuli hisoblanadi. O'yin o'ynash inson hayotini nazorat qiluvchi omil emas, balki ko'ngil ochish vositasi bo'lishi kerak. Uni bartaraf etish uchun qat'iylik va sabr-toqat bilan oila, ta'lim muassasalari va jamoatchilik birgalikda bolalarni sevimli mashg'ulotlariga ega bo'lishi uchun xarakat qilishda muvaffaqiyatga olib keladi.

Bolalar sog‘lom va har tamonlama rivojlangan shaxs bo‘lib kamol topishi uchun ekrandan oqilona foydalanishni o‘rgatish katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi “Tafakkur avlod” – 2023
2. Ota-onalardan farzandlarning o‘rtasidagi munosabatlari – farzand tarbiyasi uchun qo‘llanma
3. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) – o‘yinga qaramlik va undan qanday qurtilish mumkin.